

## YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA KINOFILIMLARNING ROLI

**Qodirov Samandar Bobir o'g'li**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Harbiy ta'lim fakulteti kursanti*

qodirovsamandar07@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kinofilmlarni tutgan o'rni haqida yoritilgan Kinofilmlarni namoyish etishni rejalashtirishda qo'llanmalardan foydalanishlari kerak. Har bir film yaratilgan yili, kinostudiyasi, necha qismdan iboratligi yozib qo'yiladi, hujjatli va ilmiy ommabop filmlarga ular mavzusi va mazmuni qisqacha aytib o'tiladi. Hujjatli, ilmiy –ommabop va o'quv filmlardan ma'ruzalar, mavzuviy suhbat uchrashuvlari, kinokechalar va yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda keng foydalanish tavsiya etiladi. O'quv maskanlarida namoyishetiladigan badiiy filmlar mavzulari turlicha bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot berilgan

**Kalit so'zlar:** Vatanparvarlik, prizidentimiz, umuminsoniy, ozodligi, yosh avlod tarbiyasi, filmlardan, ma'ruzalar, mavzuviy, suhbat, uchrashuvlari, "Ilhaq", "Matonat", "Xalq jasorati", "101", "Tutqunlik", "Tinchlik ortida", "Baron-2: Sog'inch", "Ayol qismati", "Hayot", "Vatan ostonasi", milliy kino

Vatanparvarlik insonlarni o'z vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, o'z xalqi mamlakati xududining daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy his-tuyg'u, ma'naviy qadryatlardan biri hisoblanadi.

Muxtaram prizidentimiz aytib o'tganlaridek "Ma'lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatdan ham hayot mamot masalasiga aylanib bormoqda"

Bugungi kunda mamlakatimizda prizidentimiz xabarligida barcha soxalarda bo'lganidek Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida ham keng ko'laqli ishlar olib borilmoqda. Xususan Vazirlar Maxkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qaroriga asosan "2023-2027-yillarda Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini samaradorligini oshirish" konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Konsepsiyada teleko'rsatuv radio eshittirishlar kinofilmlar va teatrlar va axborotv ositalaridan keng foydalanish Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Kino yoshlar o'rtasida eng ommaviy san'at turi hisoblanadi. Sotsiologik ma'lumotlarga ko'ra mamlakatimiz yoshlarining 80%- kinotomoshabinlardir.

Xalqimizning o'tmishida O'zbekiston Respublikasi ozodligi, mustaqilligi uchun olib borgan kurashlarini badiiy va ma'naviy jihatdan tushunib yetish, xalqimiz taqdiridagi suronli yillarning buyuk sinovlari aks ettirilgan voqealarga chuqur nazar tashlash, ularning tarixiy rivojlanishidagi ahamiyatini, ozodlik kurashini olib borgan ajdodlarimizning ommaviy fidoyiliklarining manbalarini falsafiy jihatdan mushohada qilish, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlarning bosh maqsadidir. Bunday filmlar o'tkir syujetli, chuqur falsafiy ma'noga, shuningdek, sarguzasht voqealarga boy bo'lsa, ular yoshlar tarbiyasida eng samarali vositalar bo'lib qoladi.

Ung yaxshi harbiy kinofilmlarda jasurlik, qahramonlik manbalarini badiiy jihatdan tadqiqot qilish, Vatanga bo'lgan muhabbat bilan ifodalanadi. Bu ruhiy kalit hisoblanib, u shaxsning ichki dunyosidagi eng chuqur kechinmalarning anglashga imkon beradi. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlar, yoshlarning ma'naviy e'tiyolariga to'la javob beradi, chunki ularda yoshlarga hos bo'lgan sarguzashtlarga intilish, hayotda o'zining munosib o'rnini egallash va fidoyilik namunalari hikoya qilinadi.

Milliy kino san'atini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni tizimli davom ettirish, yurtimizda jahon tajribasi asosida kino ishlab chiqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish maqsadida davlatimiz rahbarining 2021-yil 7-apreldagi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Unda belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan Kinematografiya agentligi kino san'atini jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotida strategik manba sifatida shakllantirish maqsadida davlat buyurtmasiga asosan, badiiy va g'oyaviy jihatdan yuksak saviyali filmlar suratga olib kelmoqda.

Mazkur filmlar orasida harbiy-vatanparvarlik, mamlakatimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning farovonligi yo'lida xizmat qilayotgan mard o'g'lonlar haqida hikoya qiluvchi kartinalar alohida o'rin tutadi. So'nggi yillarda mavzuga oid 30 dan ortiq badiiy va hujjatli filmlar, seriallar suratga olindi. "Ilhaq", "Matonat", "Xalq jasorati", "101", "Tutqunlik", "Tinchlik ortida", "Baron-2: Sog'inch", "Ayol qismati", "Hayot", "Vatan ostonasi" singari filmlar shular jumlasidan.

Xalqimiz orasidan el-yurt ozodligi, Vatan taraqqiyoti va farovonligi uchun o'z jonini fido qilgan qanchadanqancha sara o'g'lonlar yetishib chiqqan. Kino ijodkorlar tomonidan ana shunday mard o'g'lonlar hayotini teran va haqqoniy aks ettirishga har tomonlama e'tibor qaratib kelinmoqda.

Rejissyor Zulfiqor Musoqov suratga olgan “Vatan”, “Qo‘rg‘oshin”, “Berlin – Oqqo‘rg‘on”, “Hayrat” singari filmlarda tarannum etilgan ozodlik, vatanparvarlik g‘oyalari millionlab qalblarni larzaga soldi. Abduvohid G‘aniyev rejissyorlik qilgan “Elparvar” filmida esa xalqimizning Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘il bosqinchilariga qarshi kurashi tarixiy shaxslar, shuningdek, badiiy obrazlar va voqealar yordamida yaqqol ochib berilgan.

2020-yilda tomoshabinlar e‘tiboriga havola etilgan “Ilhaq” badiiy filmi uchun Ikkinchi jahon urushida besh farzandini urushga jo‘natib, ularning diydorini qayta ko‘rolmasa-da, saboti va matonatini yo‘qotmagan o‘zbek ayoli – Zulfiya Zokirovaning hayoti asos qilib olingan.

“Hammamiz yaxshi bilamiz, ona zoti uchun farzand dog‘ini ko‘rishdan ham og‘ir yo‘qotish yo‘q. Zulfiya aya Zokirova Ikkinchi jahon urushida bir emas, besh azamat o‘g‘lidan – Isoqjon, Ahmadjon, Mamajon, Vahobjon, Yusufjon ismli aziz farzandlaridan judo bo‘lgan. Zulfiya Zokirovadek matonatli, qahramon o‘zbek ayoli bunga bardosh bera oldi. Shunday fojiali qismatga besh marta ko‘ksini qalqon qilib, besh marta ham mardona oyoqqa turdi. Buning uchun odamda qanchalik kuchli iroda, qanchalik metin sabr-bardosh bo‘lishi kerak!”

Filmidagi ta’sirchan sahnalar yoshlarimizni urushning mudhish oqibatlaridan ogoh etish, hozirgi tinchlik-osoyishtalikning qadriga yetishga undash, ularga Vatan himoyasi inson uchun eng qadrlil, sharafli, oliy burch ekanini anglatishga xizmat qiladi.

Tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikning qanchalik ulug‘ ne‘mat ekanini o‘shib kelayotgan yosh avlodga, tinchlik posbonlari hayoti va faoliyatini xolisona aks ettirish kinoijodkorlardan jiddiy yondashuvni talab etadi.

Hilol Nasimovning “Hayot” filmi ham tomoshabinlar tomonidan iliq qarshi olingan. Film 2000-yildagi Sariosiyo voqealariga bag‘ishlanadi. O‘sha yili avgust oyida janubiy sarhadlarimizga suqilib kirmoqchi bo‘lgan terroristik guruhlariga qarshi O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining maxsus operatsiya kuchlari batalyoni kurash olib borgan. Pistirmadagi dushmanni yo‘q qilish uchun 300 dan ortiq harbiy xizmatchi mardona jang qilgan. 21 nafar o‘zbek o‘g‘loni mudofaa chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan. Ushbu kinokartina o‘sha voqealar asosida tasvirga olingan.

Akbar Bekturdiyevning “Tinchlik ortida” filmida bugungi osoyishta hayot, tinchlikning qadriga yetish, uni asrab-avaylash, Vatanga muhabbat kabi mavzular ochib berilgan. Bundan tashqari, Abduvohid G‘aniyevning “Qo‘rg‘on” filmida hayotiy qarashlari tufayli yo‘llari ayro tushgan ikki do‘stning taqdiri haqida hikoya qilinadi. Ularning biri ekstremistlar to‘dasiga kirib, xorlikda o‘lim topgan bo‘lsa,

ikkinchisi Vatan tinchligi uchun mardonavor kurashib, o'nlab hamyurtlarimiz hayotini asrab qoladi.

Ayni paytda Kinematografiya agentligi tomonidan mudofaa, ichki ishlar vazirliklari, davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya bilan hamkorlikda hujjatli filmlar, seriallar suratga olish ishlari davom ettirilmoqda. "Belarusfilm" bilan hamkorlikda Ikkinchi jahon urushi yillarida "Osiyo arsloni" nomini olgan o'zbek jangchisi Mamadali Topvoldiyev qahramonligi haqida hikoya qiluvchi "Kazbek" badiiy filmi suratga olinmoqda. "Zuvala", "Uch qahramon", "Ofitser 55" singari yana o'nga yaqin badiiy film va seriallar tomoshabinlarga taqdim etilish arafasida.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni arafasida ham Kinematografiya agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda O'zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda davlat va nodavlat telekanallarda harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi filmlar namoyish etilmoqda. 12-15-yanvar kunlari telekanallar orqali o'ndan ortiq ana shunday filmlar tomoshabinlar e'tiboriga havola etiladi.

Ushbu kinoasarlarda ona Vatan tinchligi yo'lida kamarbasta bo'lgan, fidoyiligi va jasorati bilan yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida jon fido qilgan Vatan himoyachilarining sharaflari hayot yo'liga bag'ishlanadi. Yurtimiz sarhadlari muqaddas va daxlsizligi, aynan shu yerdan xalqimizning osuda hayoti boshlanishi, uni ko'z qorachig'idek asrash yuksak sharaflari ish ekanini yoshlar ongiga singdirish, ularni ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda bu filmlarning o'rni va hissasi beqiyos.

Bunday asarlarga bo'lgan qiziqish ma'lum jihatdan, yoshlarning o'tkir syujetli sarguzashtlarni, yorqin va kuchli qahramonlarning obrazini topishga bo'lgan istaklari bilan tushuntiriladi.

Harbiy-vatanparvarlik va harbiy-tarixiy mavzudagi kinofilmlar namoyish qilinayotgan davrning, milliy-ozodlik harakatining suronli yillari ruhiy holatini tomoshabinlar diqqatiga yetkazib beradi, yosh tomoshabinlarga o'zini tarixiy voqealarning bevosita qatnashchisi sifatida his qilishga imkon beradi. Shuning uchun hozirgi vaqtdagi qahramonona-vatanparvarlik mavzusidagi kinolar, tomoshabinlar diqqatiga qaratilgan ruhiy his-hayajonli murojaatdan boshlanadi. kinolarning bunday boshlanishi, o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan zamonaviy tomoshabinni qahramonona o'tmishni chuqur his qilishga, uni o'sha davr ruhiy holatiga kirishishiga yordam beradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. SH.Tilavoldiyevning "Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari" darslik Farg'ona-2023-yil
2. 2023 – 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1996
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.